

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 571 sahifa.
2025-yil, 26-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Абдорбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
Norov Murodjon Maxmudovich	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	
SUG'URTA KORXONALARIDA REZERVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	544
Najimova Nigora	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY BOZORINING O'RNINI	549
Mardanov Aziz Yusupovich	
THE IMPORTANCE OF GREEN ENERGY IN THE ECONOMY OF FERGANA REGION: CURRENT TRENDS AND PROBLEMS	555
Khayrullaev Zoidjon	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING UNDIRILISHI BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	559
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	563
Muyassarzoda Fayziyeva	



RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Muyassarzoda Fayziyeva

Mustaqil izlanuvchi, i.f.f.d., (PhD)

fayzievamuyassar87@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8019-6001

Annotatsiya. So'nggi yillarda raqamli moliyaviy texnologiyalar va ular asosida taklif etilayotgan raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishning qamrovi kengaymoqda hamda mijozlar tomonidan foydalanish darajasi ham oshib bormoqda. Bunda amaliyotga joriy etilayotgan raqamli moliyaviy xizmatlarning qanchalik samaradorlikda ishlayotganligini aniqlash, natijada to'g'ri qarorlar va yechimlar qabul qilish o'rinlidir. Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan maqsad – raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashga oid mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida nazariy-uslubiy tahlil va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijada O'zbekiston raqamli moliya bozori samaradorligini baholashning yangi metodologiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy samaradorlik nazariyasining neoklassik yondashuvi, transaksion xarajatlar nazariyasi, uzoq to'lqinlarning innovatsion nazariyasi va Triple Bottom Line (3P: People, Planet, Profit) nazariyalari asosidagi kontseptual baza belgilandi.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, transaksion xarajatlar, uzoq to'lqinlar nazariyasi, Triple Bottom Line.

Abstract. In recent years, there has been a consistent expansion in both the scale and the intensity of the use of digital financial technologies and the digital financial services derived from them. Under these circumstances, assessing the effectiveness of the implemented digital financial services becomes increasingly significant, as it provides a scientific basis for making well-grounded managerial decisions and designing sustainable development strategies. The purpose of this study is to analyze the existing theoretical approaches to assessing the effectiveness of digital financial services and to identify the possibilities of their practical application. The study applies methods of theoretical and methodological analysis as well as comparative assessment. Based on the conducted analysis, a conceptual framework has been developed, grounded in the neoclassical approach of the theory of economic efficiency, the transaction cost theory, the innovation theory of long waves, and the Triple Bottom Line (3P: People, Planet, Profit) concept. The findings of the study may serve as a theoretical and methodological foundation for constructing a new model for assessing the efficiency of the digital financial market in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: digital financial services, economic efficiency, transaction cost theory, innovation theory of long waves, Triple Bottom Line.

Аннотация. В последние годы наблюдается устойчивое расширение масштабов и уровня использования цифровых финансовых технологий, а также предоставляемых на их основе цифровых финансовых услуг. В этих условиях особую актуальность приобретает определение степени эффективности функционирования внедряемых цифровых финансовых услуг, что позволяет формировать научно обоснованные управленческие решения и стратегии их дальнейшего развития. Цель данного исследования заключается в анализе существующих теоретических подходов к оценке эффективности цифровых финансовых услуг и выявлении возможностей их практического применения. В процессе исследования применены методы теоретико-методологического анализа и сравнительного подхода. На основе проведенного анализа сформирована концептуальная основа, базирующаяся на неоклассическом подходе теории экономической эффективности, теории транзакционных издержек, инновационной теории длинных волн и концепции Triple Bottom Line (3P: People, Planet, Profit). Полученные результаты могут служить теоретико-методологической базой для разработки новой модели оценки эффективности цифрового финансового рынка Республики Узбекистан.

Ключевые слова: цифровые финансовые услуги, экономическая эффективность, транзакционные издержки, теория длинных волн, Triple Bottom Line.

KIRISH

Biz kundalik faoliyatimizda shaxsiy mobil qurilmamizdagi tegishli ilovaga kirish orqali biror turdagi raqamli xizmatlardan foydalanamiz, bunda kommunal to'lovlar yoki davlat xizmatlari uchun to'lovlar, konvertatsiya xizmati va yoki shunga o'xshash raqamli xizmatlarni amalga oshiramiz. Ilgari bu xizmatlardan foydalanishimiz uchun, ayniqsa moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishimiz uchun bank ofislariga borishimiz, buning uchun taksi yoki boshqa transport xizmati uchun xarajat qilishimiz, bank ofisiga borganda navbat kutishimiz kerak bo'lar edi.

Hozirda foydalanuvchilar uchun to'lov masalalari ancha osonlashgan, foydalanuvchilar masofadan turib turli moliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tishmoqda, to'lovlarni amalga oshirmoqda va natijalarni qonunchilikda belgilangan vaqtlarda qabul qilib olishmoqda.

Moliyaviy raqamli xizmatlar nima? Raqamli moliyaviy xizmatlar - bu moliyaviy tashkilotlar yoki ularning agenti tomonidan iste'molchilarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalangan holda ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlardir. Raqamli xizmatlar mijozlarni mustaqil ro'yxatga olish, omonatlarga pul mablag'larini jalb qilish va ular bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlarni mijozning bank xisobvarag'iga o'tkazib berish, kreditlar taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, shu jumladan hisobvaraqlar bo'yicha pul mablag'larini aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, mahsulotlar (xizmatlar) uchun to'lovlarni kontaktsiz hisob-kitob qilish hamda boshqa moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga oladi (1).

Mahalliy va xorijiy moliyaviy tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilgan ko'plab raqamli moliyaviy xizmatlar mavjud bo'lib, ularni turlari tez sur'atlarda kengaymoqda, jumladan: to'lov va hisob-kitob xizmatlari, QR-kod orqali to'lovlar, kreditlash va investitsiya xizmatlari, onlayn sug'urta xizmatlari, FinTech asosidagi xizmatlar va boshqalar.

Raqamli moliyaviy xizmatlar sohasi rivojlanishini "raqamlar" bilan ko'rsatish, rivojlanish darajasiga ko'ra strategik to'g'ri qarorlar qabul qilish, turli masalalarga to'g'ri yechimlar topish maqsadida raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini muntazam va belgilangan davrlarda baholanib borilishidir. Natijada mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini baholashga ham erishiladi.

Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashda bunga tegishli nazariyalarni chuqur o'rganish, yondashuv va yo'nalishlarini tahlil qilish, sohani to'g'ri baholashda ko'proq mos bo'lgan nazariyalarni asos qilib olish hozirda ilmiy mas'ullar oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagiga ko'ra, mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishdan maqsad: raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning nazariy asoslarini ko'rib chiqishdir.

Mazkur maqola quyidagi 4 bo'limlardan iborat: kirish, metodologiya, natijalar va xulosa bo'limlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan nazariy asoslar iqtisodiy samaradorlik, transaksion xarajatlar, uzoq to'liqlik innovatsiyalar va Triple Bottom Line nazariyalariga tayanadi. Ushbu nazariyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni o'lchash, balki raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy, institutsional va ijtimoiy ta'sirlarini kompleks tarzda tushuntirish imkonini beradi.

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi (Economic Efficiency Theory)

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi dastlab Vilfredo Pareto (1906) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiy tizimning optimal holatini "Pareto samaradorligi" deb tavsiflagan. Bunga ko'ra hech bir subyekt boshqasining farovonligini yomonlashtirmasdan o'z foydasini oshira olmaydi. Bu yondashuv resurslar taqsimotida eng yuqori darajadagi iqtisodiy muvozanatni aniqlash imkonini beradi (2).

Transaksion harajatlar nazariyasi (Transaction Cost Theory)

Ronald Coase (1937) tomonidan ilgari surilgan transaksion xarajatlari nazariyasi firmalar nima uchun mavjudligini va ularning iqtisodiy tizimdagi o'rnini tushuntiradi. Unga ko'ra, bozor orqali har bir bitimni amalga oshirishda ma'lum xarajatlar, ya'ni ma'lumot izlash, shartnoma tuzish, monitoring va nazorat xarajatlari mavjud bo'ladi. Firmalar ushbu xarajatlarni kamaytirish uchun ichki boshqaruv tizimlarini shakllantiradi (3).

Uzoq to'liqlik innovatsiyalar nazariyasi (Innovation Theory of Long Waves)

Uzoq to'liqlik nazariyasi Nikolay Kondratyev (1925) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiy o'sish jarayonining 40–60 yillik davrlarda takrorlanishini aniqlagan. Har bir iqtisodiy to'liqlik yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Jozef Shumpeter (1939) esa ushbu nazariyani rivojlantirib "innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi" degan g'oyani ilgari surgan. U eski texnologiyalarni yangi innovatsion tizimlar bilan almashtirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi deb ta'kidlagan (4, 5).

Triple Bottom Line nazariyasi (TBL)

Triple Bottom Line (3P – People, Planet, Profit) konsepsiyasi 1990-yillarda John Elkington (1994) tomonidan yaratilgan va unga ko'ra, tashkilotlar faoliyatining samaradorligi faqat iqtisodiy natijalarga emas,



balki ijtimoiy va ekologik ta'sirlarga ham bog'liq. Ya'ni, korporativ muvaffaqiyatni o'lchashda moliyaviy foyda, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik birgalikda baholanishi kerak (6).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy-uslubiy tahlil va qiyosiy yondashuv qo'llanildi. Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, iqtisodiy nazariyalar hamda konsepsiyalar o'rganildi. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlik nazariyasining uch yondashuvi (klassik, neoklassik va neoinstitutsional), transaksion xarajatlar nazariyasi, J. Shumpeterning uzoq to'liqlar innovatsion nazariyasi hamda Triple Bottom Line konsepsiyasi tahlil qilindi. Nazariy asoslarni qiyoslash orqali raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan yondashuvlarning kontseptual bazasi belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot ishida raqamli texnologiyalar, raqamli to'lov xizmatlari va innovatsiyalar samaradorligini baholashni qo'llab-quvvatlaydigan bir nechta nazariyalar ko'rib chiqildi, xususan:

- iqtisodiy samaradorlik nazariyasi;
- transaksion xarajatlar nazariyasi;
- uzoq to'liqlarning innovatsion nazariyasi;
- Triple Bottom Line (3P: People, Planet, Profit) nazariyasi.

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi 3 xil yondashuvlardan iborat bo'lib, ular (7):

-klassik nazariya, ya'ni iqtisodiy samaradorlikning asosi sifatida raqobat, mehnat taqsimoti va kooperatsiyani ko'rsatadi. Raqobat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, mehnat unumini kuchaytiradi, fan-texnika yutuqlarini joriy qilishni tezlashtiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi;

-neoklassik nazariya, ya'ni samaradorlikni resurslardan optimal foydalanish, iqtisodiy ko'rsatkichlar va modellardan foydalanib tahlil qilish bilan bog'laydi. Bu yondashuv samaradorlikni matematik va statistik usullar orqali aniqlashga intiladi;

-neoinstitutsional nazariya, ya'ni samaradorlikni mulk huquqi va transaksion xarajatlar bilan bog'lab tushuntiradi. Bunga ko'ra, samarali iqtisodiyot uchun mulk huquqi aniq belgilangan, himoyalangan bo'lishi shart. "Mulk huquqi dastasi" tushunchasi orqali resurslardan foydalanishning turli huquqlari taqsimlanishi samaradorlikni belgilab beradi (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiy samaradorlik nazariyalarini taqqoslanishi¹

Nazariya turi	Asosiy g'oya	Samaradorlik manbai	Afzalligi	Cheklovlari / Tanqidlar
Klassik nazariya	"Samaradorlik iqtisodiy faoliyat natijasini resurslar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi."	"Mehnat, kapital va yer kabi ishlab chiqarish omillarining nisbati."	"Iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan asosiy omillar to'g'risidagi ilk nazariy tushunchalarni shakllantirdi."	"Ijtimoiy va institutsional omillarni hisobga olmaydi."
Neoklassik nazariya	"Samaradorlik bozor mexanizmlari orqali resurslarni optimal taqsimlashga bog'liq."	"Ishlab chiqarish funksiyasi va marjinal foyda tamoyili."	"Bozorda raqobat orqali resurslar taqsimotini oqilona ta'minlash imkoniyatini ko'rsatdi."	"Bozordagi real to'siqlar va axborotning to'liq emasligini inkor etadi."
Institutsional va neoinstitutsional nazariya	"Samaradorlikka faqat ishlab chiqarish omillari emas, balki institutlar va transaksion xarajatlar ham ta'sir ko'rsatadi."	"Institutlar tizimi va transaksion xarajatlarning darajasi."	"Iqtisodiy munosabatlardagi norasmiy qoidalar va institutlarni hisobga oladi."	"Transaksion xarajatlarni aniq o'lchashning qiyinligi."

1 ¹ Maqola muallifi tomonidan 7 chi manba asosida umimlashtirilgan.

Transaksion xarajatlar nazariyasi

Samaradorlikka neoinstitutsional yondashuvning muhim konseptual asoslaridan bo'lgan mulk huquqi bilan bir qatorda turadigan kategoriya – transaksion xarajatlardir.


Transaksion xarajatlar nazariyasiga ko'ra iqtisodiy agentlarning birgalikda faoliyat yuritishlarida zarur bo'lgan munosabatlarni o'rnatish uchun zarur xarajatlarga e'tibor beriladi (8). Transaksion xarajatlar xo'jalik ichida, bozor miqyosida va ijtimoiy-siyosiy-iqtisodiy, boshqacha aytganda makrodarajada qarorlar qabul qilish sohasida ko'riladi (2-jadval).

2-jadval. Transaksion xarajatlar darajalari²

Daraja	Mazmuni	Asosiy tarkibiy qismlar
Ichki transaksion xarajatlar	"Ichki transaksion xarajatlar xo'jalik doirasida sarflanadigan xarajatlarni o'z ichiga oladi."	"Xarajatlarning bu guruhiga xo'jalikni boshqarish, ishlovchilarning monitoringi, mahsulotni sotish va boshqalar kiritiladi."
Bozor transaksion xarajatlari	"Ikkinchi darajadagini bozor bilan bog'liq transaksion xarajatlar tashkil etadi. Bozorda transaksion xarajatlar bozor munosabatlariga kirishishda, mulk huquqini ayirboshlashda turli to'siqlarni yengish zaruratidan kelib chiqadi."	"Axborotlarni izlash xarajatlari; bitim tuzish uchun muzokaralar olib borish xarajatlari; o'lchov xarajatlari; mulkka bo'lgan huquqni himoya qilish xarajatlari; shartnoma tuzish va uni bajarish bilan bog'liq xarajatlar; opportunistik xulq-atvor, sa'y-harakat, monitoring o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar."
Siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy (makro) transaksion xarajatlar	"Siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy darajada transaksion xarajatlarning mavjud bo'lishi aholining o'z maqsadiga erishish, manfaatlarini realizatsiya qilish uchun davlat institutlaridan foydalanish zaruriyatidan kelib chiqadi."	"Bu darajadagi transaksion xarajatlar: 1) tizimning rasmiy va norasmiy siyosiy tashkilotlarini yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash va o'zgartirish xarajatlari; 2) davlat qurilishini ushlab turish xarajatlari o'z ichiga oladi; 3) mukammallashtirish xarajatlari ham ko'proq shu guruhga mansub."

Uzoq to'liqlarning innovatsion nazariyasi

Barcha zamonaviy innovatsion konsepsiyalarning asoschisi hisoblangan avstriyalik iqtisodchi J. Shumpeter tomonidan (9, 10) uzoq to'liqlarning innovatsion nazariyasi ilgari surilgan, unga ko'ra Shumpeter bu hodisani "har bir innovatsiya to'liqini bir xil davom etmasligini, ularning davomiyligi yangi texnologiyalarning tez rivojlanishi tufayli qisqarib borishini ta'kidlagan (1-rasm).



1-rasm. Uzoq to'liqlarning innovatsion nazariyasi

Manba: (10)

1-rasmda quyidagi 5 ta to'liqlar tasvirlangan:

- 1-to'liq (1785–1845 yillar): suv energiyasi (water energy), to'qimachilik (textile) va temir (iron);
- 2-to'liq (1845–1900 yillar): bug' (steam), po'lat (steel) va temir yo'l (railway);

² Maqola muallifi tomonidan 8 chi manba asosida umumlashtirilgan.



3) 3-to'liqin (1900–1950 yillar): elektr energiyasi (electric energy), kimyoviy mahsulotlar (chemicals) va ichki yonuv dvigatellari (internal combustion engines);

4) 4-to'liqin (1950–1990 yillar): neft-kimyo (petrochemical), elektronika (electronics) va aviatsiya (aviation);

5) 5-to'liqin (1990 yildan hozirgacha): raqamli tarmoqlar (digital networks), dasturiy ta'minot (software) va yangi media (new media).


Hozirda biz beshinchi innovatsiya to'liqini davrida yashayapmiz, unda raqamli yechimlar o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda (11). Innovatsiyalarning o'ziga xos mazmuni J. Shumpeterning so'zlari bilan aytganda, "o'zgaradi" va innovatsiyalarning asosiy vazifasi "o'zgarishlarni boshqarish funksiyasi"dir (12). Bu esa yangilikning umumiy va keng ko'lamidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, innovatsiyani "inson faoliyatining turli turlariga ushbu faoliyat samaradorligini oshiradigan yangi elementlarni (turlarni, usullarni) kiritish" deb tushunish mumkin (13).

J. Shumpeter tomonidan ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni nafaqat texnologiyada, balki ishlab chiqarishni tashkil etishda hamda tadbirkorning ongli faoliyati natijasi bo'lgan sifat o'zgarishlarda ham ko'rish mumkin. J. Shumpeterning fikriga ko'ra, innovatsiya - bu tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish sharoitlari va omillarining yangi kombinatsiyasi (14).

Triple Bottom Line (3P: People, Planet, Profit) nazariyasi

Uch tomonlama natija (Triple Bottom Line – TBL) konsepsiyasi kompaniya faoliyatini uchta yo'nalishda teng ravishda baholash kerakligini ta'kidlaydi (15): ijtimoiy masalalar, atrof-muhit maqsadlari va iqtisodiy ko'rsatkichlar. Bu nazariyasiga ko'ra, kompaniyaning faqat bitta "yakuniy natijasi" (foyda) emas, balki uchta asosiy ko'rsatkich bo'lishi kerak (2-rasm):

- Profit (iqtisodiy natijalar);
- People (ijtimoiy natijalar);
- Planet (ekologik natijalar).



2-rasm. Uch tomonlama natija (Triple Bottom Line)

Manba: (16)

Adabiyotlarda ushbu kontsepsiya 3P - odamlar, foyda, sayyora tushunchasi sifatida ham tanilgan, chunki uning maqsadi korxonalarning atrof-muhit va ijtimoiy sohaga oid harakatlarini moliyaviy natijalarga o'xshash darajada ko'rib chiqish va shu sohalaridagi samaradorlik bo'yicha aniq hisob-kitoblar olib borishdan iborat. "Bottom Line" tushunchasining o'zi kompaniyaning sof daromadiga, ya'ni iqtisodiyot sohasiga ishora qiladi. Uch tomonlama natija esa qo'shimcha ravishda ijtimoiy va ekologik sohalarni ham o'z ichiga oladi (17).

Biznes tashkilotlari, notijorat tashkilotlar va hukumatlar tomonidan "Triple Bottom Line" konsepsiyasini qo'llash iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslanadi, ammo ular uchta toifa natijalarini o'lchash usullari bo'yicha farqlanadi. Bu kabi barqarorlikni baholash asoslarini ishlab chiqqan va qo'llagan

tarafdorlar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishgan, ularning eng muhimi ham keng qamrovli, ham mazmunli indeksni qanday yaratish va indeksni tashkil etuvchi o'zgaruvchilar uchun mos ma'lumotlarni qanday aniqlash masalalaridir (18). Uch tomonlama natija (Tripple Bottom Line) tafakkuri barqaror rivojlanish konsepsiyasidan ilhom olgan va u bilan chambarchas bog'liq – ya'ni rivojlanish jarayonlari hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ham shu imkoniyatlardan foydalanish sharoitlarini saqlab qolgan holda amalga oshirilishi kerak degan tamoyilni bildiradi (19).

Uch tomonlama natija (Triple Bottom Line) va barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning maqsadini ish o'rinlari va boylik yaratish orqali inson farovonligini va hayot sifatini yaxshilash deb tushunadi. Iqtisodiy rivojlanish jarayoni esa ish o'rinlari va bizneslarni yaratish, kengaytirish, saqlab qolish va jalb etish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda turli usullar qo'llanadi, masalan: biznesni qo'llab-quvvatlash, ishchi kuchini rivojlantirish, tarmoqlar va infratuzilmani shakllantirish, shuningdek biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi sharoit va imkoniyatlarni yaratish. Ushbu yondashuv an'anaviy iqtisodiy rivojlanish tushunchasiga qo'shimcha qilib, iqtisodiy rivojlanish ekologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq ekanligini tan oladi (3-jadval). Ya'ni, iqtisodiy rivojlanish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar birgalikda ko'rib chiqilishi va hal etilishi zarur (20).

3-jadval. Uch tomonlama natija (Tripple Bottom Line) nazariyasining yo'nalishlari³

Yo'nalish	Asosiy maqsad	Asosiy ko'rsatkichlar
Iqtisodiy (Economic)	Ish o'rinlari va boylik yaratish (wealth creation, jobs)	- Ish o'rinlari (jobs); - Aholi jon boshiga daromad (per capita income); - Soliq bazasi (tax base); - Yalpi ichki mahsulot – YIM (gross domestic product – GDP).
Ijtimoiy (Social)	Insonlar farovonligi va jamiyat rivojlanishi (human well-being, community well-being)	- Hayot sifati (quality of life); - Avlodlararo va avlod ichidagi tenglik (inter- and intragenerational equity); - Ijtimoiy kapital (social capital); - Teng rivojlanish (equitable development).
Ekologik (Environmental)	Tabiiy resurslarni saqlash va ekotizimlarni muhofaza qilish (environmental stewardship, natural resource base)	- Ekotizim xizmatlari (ecosystem services): - Ta'minlash (provisioning) - Tartibga solish (regulation) - Qo'llab-quvvatlash (supporting) - Madaniy (cultural) - Energiya tejash; - Tabiiy resurslarni saqlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida yoritilgan nazariyalar va yondashuvlar yangi innovatsion texnologiyalar va ularni maxsulotlarini yaratish natijasida tashkilotga, jamiyatga va iste'molchilarga keladigan iqtisodiy foydani, ijtimoiy nafni, shu bilan birga atrof-muhit uchun yaratiladigan foydani baholashda olimlar tomonidan qo'llanib kelinmoqda. O'zbekiston raqamli moliya bozori samaradorligini baholashning yangi metodologiyasini ishlab chiqishda yuqorida tasvirlangan nazariyalarning bir nechta yondashuvlari asos sifatida tanlab olinadi, xususan, iqtisodiy samaradorlik nazariyasining neoklassik yondashuvi, transaksion xarajatlar nazariyasi, uzoq to'lqinlarning innovatsion nazariyasi va Triple Bottom Line (3P: People, Planet, Profit) nazariyalari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- Raqamli moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish standartlari, https://cbu.uz/upload/iblock/f0e/28_4-Boshqaruv-qaroriga-ilova-_Raqamli-khizmatlar-standartlari_.pdf
- Pareto, V. (1906). Manuale di Economia Politica. Milan: Società Editrice Libreria.
- Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. *Economica*, 4(16), 386–405. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x>
- Kondratiev, N. D. (1925). The Major Economic Cycles. Moscow: Institute of Economics.
- Schumpeter, J. A. (1939). Business Cycles: A Theoretical, Historical, and Statistical Analysis of the Capitalist Process. McGraw-Hill.
- Elkington, J. (1994). Towards the Sustainable Corporation: Win–Win–Win Business Strategies for Sustainable Development. *California Management Review*, 36(2), 90–100. <https://doi.org/10.2307/41165746>

3 ⁵ Maqola muallifi tomonidan 20-manba asosida umumlashtirilgan.



7. Тожибоева, Д. (2018). ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИККА ЁНДАШУВЛАРНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ ВА ФАРҚЛАРИ (1-мақола). Экономика и финансы (Узбекистан), (12), 8-16.
8. Тожибоева, Д. (2019). ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИККА ЁНДАШУВЛАРНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ ВА ФАРҚЛАРИ (2-мақола). Экономика и финансы (Узбекистан), (1), 8-15.
9. The Economist (1999) "Catch the wave: The long cycles of industrial innovation are becoming shorter". Available at: <<https://www.economist.com/node/186628>>[Accessed: 8 March 2018].
10. Levi Jakšić, M. et al. (2018a) Tehnološko preduzetništvo. Beograd: Fakultet organizacionih nauka.
11. Jovanović, M., Dlačić, J., & Okanović, M. (2018). Digitalization and society's sustainable development—Measures and implications. Zbornik radova Ekonomskog fakulteta u Rijeci: časopis za ekonomsku teoriju i praksu, 36(2), 905-928.
12. The CEO's role in business model reinvention, V.Govindarajan, C. Trimble, Harvard Business Review, January-February, 2011, pp.109-114.
13. New business models in emerging markets, M.J.Eyring, M.W.Johnson, H.Nair, Harvard Business Review, January-February, 2011, pp.89-95.
14. A.Taniyev. "Innovatsion iqtisodiyot". Darsik. Samarqand: SamDU nashri, 2020 y.-460 b.
15. Harvard Business Review. "25 Years Ago I Coined the Phrase 'Triple Bottom Line.' Here's Why It's Time to Rethink It." <https://hbr.org/2018/06/25-years-ago-i-coined-the-phrase-triple-bottom-line-heres-why-im-giving-up-on-it>
16. Teaching guide: Elkington's triple bottom line, <https://www.aqa.org.uk/resources/business/as-and-a-level/business-7131-7132/teach/teaching-guide-elkingtons-triple-bottom-line>
17. Žak, A. (2015). Triple bottom line concept in theory and practice. Social Responsibility of Organizations Directions of Changes, 387(1), 251-264.
18. Slaper, T. F., & Hall, T. J. (2011). The triple bottom line: What is it and how does it work. Indiana business review, 86(1), 4-8.
19. World Commission on Environment and Development. (1987). Our common future. New York, NY: Oxford University Press.
20. Hammer, J., & Pivo, G. (2017). The triple bottom line and sustainable economic development theory and practice. Economic Development Quarterly, 31(1), 25-36.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100